



Safarov Baxtiyor

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi

TURKISTONDA SO‘L ESERLAR VA BOLSHEVIKLAR SIYOSIY KURASHINING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729428>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkistonda so‘l eserlar va bolsheviklar siyosiy kurashining nazariy asoslari o‘rganilgan. Bunda Turkiston o‘lkasidagi so‘l eserlar sovet hokimiyatining dastlabki davrida – 1917-yil noyabrdan to 1919-yil bahorigacha bolsheviklar bilan hamkorlik qilgani tahlil qilingan. Shuningdek, bolsheviklar o‘zlarining “ittifoqchilari” bo‘lgan so‘l eserlarni siyosiy hokimiyat uchun kurashda yanchib tashlagani bilan bog‘liq jihatlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: So‘l eserlar, bolsheviklar, mensheviklar, kapitalizm, kommunizm, burjuaziya, milliy siyosat, totalitar, sovet, avtonomiya, muxtoriyat, partiya.

Kirish. XIX asr oxiriga kelib jahonda kasaba uyushmalari, ishchilar partiyalari va siyosiy tashkilotlarning har tomonlama o‘sishi hamda faol harakat qilishi yuz berdi. Ushbu davrda “Sotsial-demokratlar” deb nom olgan sotsialistik partiyalar kurashning ochiq siyosiy usullarini qo‘llay boshladilar. 1917-yil bolsheviklar g‘oyalari asosida inqilobni amalga oshirgan Rossiya o‘ta so‘l sotsial-demokratlari “kommunistlar” deb atala boshlandi. Ular doimo insonning ijtimoiy mavjudot

ekanligi va uning individual xususiyatlarining ijtimoiy jihatdan cheklanganligini ta’kidlar edi. K. Marks fikricha, go‘yoki kapitalizm insonlarni jamoachilik va o‘z individual imkoniyatlaridan begonalashtiradi, uni shaxsiy foyda orqasidan quvishga majbur etadi [1].

Asosiy qism. XX asrning birinchi choragida mafkuralar to‘qnashuvi va g‘oyalar qarama-qarshiligi tufayli dunyo ikkiga – ishchilar dunyosi va burjuaziya dunyosiga bo‘lindi. O‘sha davrda matbuotda shunday yozilgan edi: “Hozirgi vaqtida ishchilar dunyosi va burjuaziya dunyosi bir-birini istisno qiladi va birgalikda mavjud bo‘lmaydi. Biz bu ikki dunyoni birgalikda hayotga moslashtirmoqchi bo‘lganimizda, qarama-qarshiliklar tubiga tushib qolamiz. Tabiiyki, hech qanday qarama-qarshilikni bilmaydigan tarixning ob’ektiv yo‘nalishi bizni tarixiy qurilishda ishtirok etishdan uzoqlashtiradi. Qadimgi dunyoni yo‘q qilib, endi biz uning xarobalarida yashayapmiz. Biz yangi hayotni qurishimiz yoki eski turdagи hayotni qurishga harakat qilishimiz mumkin. Uchinchi yo‘l yo‘q. Ushbu uchinchi shaxsga bo‘lgan barcha intilishlar va izlanishlar faqat hayotdagi tartibsizliklarni kuchaytirishga olib keladi” [2].

Rossiya hududida bolsheviklar bilan bir qatorda eserlar, mensheviklar va boshqa partiyalar faoliyat yuritgan hamda ular o‘rtasida siyosiy kurashlar yuz bergen. Rossiyadagi sotsialist-revolusionerlar partiyasi a’zolari tarixiy manbalarda ko‘proq eserlar nomi bilan tilga olinadi. Eserlar partiyasi 1901-yil oxirida tashkil topdi. Ular Rossiyadagi dehqonlar manfaatini ifodalagan. Rossiyadagi eserlar partiyasi rahbarlari: V.M. Chernov, A.F. Kerenskiy, N.D. Avksentev, A.R. Gots, V.M. Zemzinov va boshqalar bo‘lgan [3].

Bu paytda Rossiya siyosiy maydonida yana bir partiya mensheviklar ham kurashayotgan edi. Mensheviklar – 1903 yildagi RSDRP II-s’ezdida partianing bolsheviklar va mensheviklarga ajralishi natijasida paydo bo‘ldi. Partiya markaziy organlarini saylash paytida ko‘pchilik ovoz olgan leninchi bolsheviklar ularga qarshi chiqqan va ozchilik ovoz olganlar mensheviklar deb ataldi. Mensheviklar liderlari L.Martov, A.S. Martinov, P.B. Akselrod, A.N. Potresov, F.I. Dan bo‘lgan.

V.I. Lenining qator asarlarida mensheviklarning paydo bo‘lish sabablari, uning ixtimoiy ildizari va mohiyati har tomonlama yoritilgan [4].

1905-yilgi inqilobda sotsial-demokratiya va mayda inqilobiy partiyalar o‘rtasida jangovor kelishuv zarur bo‘lgan. Bu inqilobda ko‘plab guruhlar va siyosiy oqimlar siyosiy maydonga ko‘tarildi. Rossiyadagi eserlar partiyasi ichida turli ziddiyatlar bo‘lgan. Bu ziddiyatlar, xususan, Birinchi rus revolyusiyasi (1905-1907 y.) hamda Birinchi jahon urushi (1914-1918 y.) davrida kuchayib, partiyadan 1906-yili xalq sotsialistlari va maksimalistlar partiyalari, 1917 yil noyabrda so‘l eserlar partiyasi ajralib chiqdi. So‘l eserlar 1917-yil 25-oktyabr (7-noyabr)da Petrogradda hokimiyatni zo‘ravonlik bilan qo‘lga olgan bolsheviklar bilan ittifoq tuzdilar. Bu paytda bolsheviklar ham taktik maqsadlarni ko‘zlab, so‘l eserlar bilan hokimiyatni vaqtinchalik bo‘lishdi.

Birinchi jahon urushi yillarida eserlar partiyasining bir guruh yo‘lboshchilari bo‘lgan B.D. Kamkov, M.A. Natanson, M.A. Spiridonova va boshqalar urushga qarshi chiqib, Rossiya imperiyasi rasmiy siyosatiga muxolifatda bo‘lishgan. Fevral inqilobidan keyin ular Moskvada 1917-1918 yillarda nashr etilgan “Zemlya i volya” (“Yer va erk”) gazetasi atrofida birlashdilar. Moskvada 1917-yil 25-may 4-iyunda bo‘lib o‘tgan eserlar partiyasining III s’ezdida ular alohida dastur bilan chiqib, eserlar partiyasi Markaziy Komitetining uchta asosiy siyosiy qoidasiga quyidagicha qarshi chiqdilar: urushni imperialistik xususiyatini e’tirof etish hamda zudlik bilan urushni to‘xtatish va Rossiyaning jahon urushidan chiqib ketishini ta’minalash; aksilinqilobchi Muvaqqat hukumat bilan eserlar hamkorligini to‘xtatish; yer haqidagi masalani eserlar dasturi asosida “sotsializatsiya” yo‘li bilan tez hal qilish hamda krestyanlar (dehqonlar)ga belgilangan normada yerni taqsimlab berish. Keyinchalik so‘l eserlar kadetlar bilan ham ittifoqqa qarshi chiqishdi va bolsheviklarga yaqinlashdilar[5]. V.I. Lenin boshchiligidagi sovet hukumati o‘zining Tinchlik va Yer to‘g‘risidagi dastlabki dekretlaridagi asosiy g‘oyalarni so‘l eserlarning yuqoridagi fikrlaridan olishgan edi.

1917-yili Nikolay II taxtdan ag‘darildi va Kerenskiy boshchiligidagi Muvaqqat hukumat tuzildi. Shundan so‘ng Muvaqqat hukumat bolsheviklar, eserlar va mesheviklar partiyalari vakillari bilan muzokaralar olib borib, ko‘plab va’dalar berdilar. Eserlar yer egaligining tenglik dasturi dehqonga ijtimoiy farovonlik va’dasi qildi. Eserlar dasturidan farqli o‘laroq, 1902-yilda Leninning agrar dasturi “Iskra” gazetasida nashr etilgan. Iskrachilar yaqinlashib kelayotgan inqilob-burjua inqilobi bo‘lishini ta’kidladilar, eserlar esa bu “birinchi navbatda siyosiy va ma’lum darajada demokratik” bo‘lishini bashorat qilishdi. Bolsheviklar eserlarning yer egaligi bo‘yicha qarashlarini burjua dasturidan tashqariga chiqmagan deya ta’kidlaydilar. Dehqonni o‘z erini xohlaganicha tasarruf etish huquqidagi mahrum qildi, krepasnoylik qoldiqlarini saqlab qoldi. Bu esa dehqonlarning kambag‘al qismini rivojlanishiga to‘sinqinlik qildi. Eserlarning ta’kidicha bolsheviklar o‘zlarining agrar dasturiga ega emas edi [6].

Butun hokimiyatni Sovetlarga o‘tkazish to‘g‘risidagi bolsheviklar rezolyusiyasi, Sovet hukumatining tinchlik, yer to‘g‘risidagi va boshqa qonunlar to‘g‘risidagi dekretlar uchun ovoz berishga to‘plangan delegatlar, so‘l eserlar fraksiyasi s’ezda oxiriga kelib 179 nafar eserlarni tashkil etdi[7]. Sovetlarning II s’ezdidan o‘ng eserlar va mensheviklar ketgandan so‘ng, so‘l eserlar delegatlari soni bo‘yicha Bolsheviklar fraksiyasidan keyin ikkinchi o‘rinni egallagan. Shu yerda so‘l eserlar Bolsheviklarning etakchi rolini tan olishga majbur bo‘lgan. Ularning rahbarlaridan biri – Mixaylov (Karelin) Sovetlarning II s’ezdida shunday deydi: “Biz butun inqilob taqdiri Bolsheviklar taqdiri bilan bog‘liqligini tushunamiz, ularning o‘limi inqilobning o‘limi bo‘ladimi” [8]. Rossiyadagi so‘l eserlar partiyasi liderlari Spiridonova, Kamkov, Natanson, Mstislavskiy va boshqalar Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (VSIK) Prezidiumi a’zoligiga saylandi (1917-yil noyabr – 1918-yil mart). Ular 1917-yil dekabrda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti (SNK) tarkibiga ham “portfelsiz ministrlar” sifatida kiritildi (A. Kolegaev, I. Shteynberg, P. Proshyan, V. Trutovskiy, V. Algasov, V. Karelin va b.). Biroq so‘l eserlar 1918-yil martda imzolangan Brest sulhiga qarshi chiqib, Bolsheviklar bilan bu masalada qattiq

tortishib qoldilar. So‘l eserlar norozilik sifatida sovet hukumati tarkibidan chiqib ketishdi [9]. Bolsheviklarning subutsiz va makkorona siyosati, ularning xalqqa qarshi qaratilgan ishlari so‘l eserlarni ham ulardan hafsalasi pir bo‘lishiga olib keldi. So‘l eserlar partiyasining 1918-yil 2-7-oktyabrdagi Moskvada bo‘lib o‘tgan IV s’ezdi bolsheviklardan xoli “haqiqiy sovet tuzumi” o‘rnatalishini talab qildi. Bu holat bolsheviklarni yanada qattiq g‘azablantirdi. Bolsheviklarning turli aylg‘oqchilari va chekistlar so‘l eserlar partiyasini ichdan emirishga, partiya liderlarini bir-biriga qarshi qo‘yishga harakat qildi. Partiyaning etakchisi Mariya Aleksandrovna Spiridonova (1884-1941yy.) bilan Markaziy Komitet a’zolari o‘rtasida 1919 yil yozida katta kelishmovchilik tug‘dirildi. Buning natijasida M. Spiridonova siyosiy kurash maydonini tark etdi. Shteynberg boshchiligidagi Markaziy tashkiliy byuro sovet hokimiyati bilan hamkorlik qila boshladi. 1920-yil oktyabrdagi sovet hukumati so‘l eserlarning ko‘pchilik qismiga ochiq faoliyat ko‘rsatishga vaqtincha ruxsat berdi. Kamkov boshchiligidagi ozroq so‘l eserchilar yashirin faoliyatga o‘tib, Maxno va Antonov boshchiligidagi Ukraina va Tambovda sovet hokimiyatiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarda g‘oyaviy rahnamolar sifatida qatnashdilar[10]. 1921-yildagi Kronshtadt isyonidagi matroslar orasida ular ham bo‘lgan. So‘l eserlar rahbarlari maksimalistlar bilan birlashgan 1922-yil sentyabrdagi “So‘l eserlar partiyasi va sotsialist-revolusionerlar maksimalistlar birlashgan ittifoqi”ni tuzdilar. Bu siyosiy kuch Rossiyada bolsheviklar tomonidan 1923-yilda butunlay tugatildi.

Turkiston o‘lkasida eserlar partiyasining dastlabki faoliyati XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Eserlar partiyasi Turkiston o‘lkasida ham asosan Rossiya imperiyasi markazida bo‘lgani singari dehqonlar va mayda burjuaziyaning asosiy siyosiy tashkiloti sifatida maydonga chiqqan. Ularning Turkiston mintaqasi shaharlaridagi ta’siri hatto Rossiyaning ilg‘or sanoatlashgan hududlariga nisbatan ham ancha kuchli bo‘lgan. Tarixchi M.G. Malikovning yozishicha, Turkistonda eserlar partiyasining birinchi guruhlari 1903-yilda tashkil topgan. 1917-yil sentyabrdagi eserlar partiyasidan so‘l eserlar guruhi ajralib chiqqan[11]. Turkistondagi so‘l eserlar partiyasi Oktyabr

to‘ntarishidan so‘ng bolsheviklar bilan hamkorlik qilgan. Bu holat to 1919-yil iyuligacha davom etadi.

Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, 1904-yili Toshkent va Samarqandda “Sotsial demokratlar va sotsialist-revolusionerlarning ittifoq guruhi” tashkil qilindi. 1904 yili sentyabrda Asxabod (hozirgi Ashxobod) shahrida L. Stabrovskiy eserlar guruhini tashkil qiladi[12]. 1905-yili Verniy (hozirgi Olmaota) shahrida “Revolusioner sotsialistlarning Semirechye (Ettisuv) guruhi tuzildi”. Guruh tarkibiga sotsial-demokratlar va eserlar kiradi [13].

Birinchi rus inqilobi yillarida Turkistonda sotsial-demokratik g‘oyalar zaiflashdi, ko‘pchilik RSDRP saflarini tark etdi. Rossiya imperiyasining qatag‘on siyosati, xususan, 1907-yili iyunda Toshkentda maxsus tashkil etilgan Turkiston rayon muhofaza bo‘limi (chor oxrankasi) [14] ularni shafqatsiz jazoladi. Biroq bu paytda Turkiston aholisining asosiy qismi bo‘lgan dehqonlar manfaatini himoya qilayotgan eserlar partiyasining obro‘sni oshdi. Eserlar partiyasi saflariga surgun qilingan siyosiy mahbuslar va Turkistonda yashovchi yevropaliklardan tashqari, ular ichida Rossiyadan ko‘chirilgan rus mujiklari ham ko‘pchilikni tashkil etib, tub aholi vakillari (o‘zbeklar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar) ham bor edi.

So‘l eserlar partiyasining tashkil topishi 1917-yilning noyabr oyiga to‘g‘ri keladi[15]. Turkiston o‘lkasida 1917-yil 10-sentyabr kuni eserlar partiyasida bo‘linish yuz bergen edi. Shu kuni partianing Toshkent bo‘limi yig‘ilishida I.I. Chernevskiy boshliq so‘l eserlar o‘zlarini o‘ng eserlardan ajrab chiqqanlarini e’lon qilishdi [16]. O‘ng eserlar tarkibida yuqori mansabli zabitlar, mansabdorlar va burjuaziya vakillari qolishdi [17].

1918-yil aprel oyiga kelib so‘l eserlar partiyasi to‘liq shakllanib bo‘ldi. Partianing so‘l va o‘ng eserlarga bo‘linishiga Rossiyaning imperialistik urushdan chiqish yo‘li va muddati, yer va hokimiyat borasidagi fikrlar qarama-qarshiligi sabab bo‘ldi [18]. So‘l eserlar o‘zlarini “Simmervald platformasi” tarafдорлари deb hisoblashishardi va “mustahkam tinchlikka, faqat sotsializm uchun kurash yo‘li bilan erishish mumkin” deb o‘ylashardilar [19].

1917-yil sentyabrda Turkistonda so‘l eserlar aslini olganda mustaqil siyosiy partiya bo‘lib ajralib chiqdi. Bu partiya burjuaziya bilan koalitsiya tuzishga qarshi bo‘lib, darhol katta yer dehqon egaligini tugatishni yoqlab chiqadi [20]. Toshkentda 1917-yil 1-noyabrda hokimiyatni bolsheviklar zo‘ravonlik bilan bosib olishdi. Biroq ularning mintaqada nufuzi bu paytda zaif bo‘lib, dastlabki sovet hukumati tarkibiga bolsheviklardan tashqari so‘l eserlar va mensheviklar ham kirishgan.

1917-yil 15-22-noyabrda Toshkentda bo‘lgan Ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o‘lka s’ezdida hokimiyat masalasida qizg‘in munozaralar bo‘ldi[21]. Bolsheviklar bilan so‘l eserlar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq hukumat tarkibidagi 8 o‘rin so‘l eserlar va 7 o‘rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berildi. Sovet Rossiyasi (RSFSR)dan farqli ravishda Turkistondagi dastlabki sovet hukumatida bolsheviklarga nisbatan so‘l eserlar ko‘pchilikni tashkil qildi. Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS) raisi qilib bolshevik F.I. Kolesov saylandi. Biroq Turkiston o‘lkasidagi dastlabki sovet hukumati tarkibiga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. 1917-yil oxirigacha Rossiya markazida tuzilgan siyosiy partiyalar, hatto bolsheviklar partiyasi (kommunistik partiya) safiga ham tub aholi vakillaridan deyarli hech kim kirmaganligini o‘sha davrga oid arxiv manbalari tasdiqlaydi. Xullas, Turkiston o‘lkasida 1917-yilda kechgan siyosiy jarayonlarda eserlar partiyasining, xususan, so‘l eserlarning mavqeい baland bo‘lgan. 1917-yil noyabrda Toshkentda bolsheviklar tomonidan sovet hokimiyati zo‘ravonlik bilan o‘rnatilgach, aynan ular so‘l eserlar va maksimalistlar bilan ittifoq tuzishgan.

Shundan so‘ng bolsheviklar mamlakatdagi boshqa siyosiy partiyalarga qarshi keskin kurash boshladilar. 1919-yil yozda Toshkent shahar dumasiga saylovlar bo‘lib o‘tadi va saylov natijasiga ko‘ra “Sho‘roi Ulamo” partiyasidan 62 ta, Eserlar partiyasidan 24 ta, “Sho‘roi Islom” partiyasidan 11 ta, Sotsial-demokratlardan 11 ta kishi saylandi[22]. Ushbu natijalardan ham ko‘rishdan mumkinki, 1917-yilning fevral-oktyabr oylari oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda eserlar partiyasining qat’iy pozitsiyasini va mahalliy halq orasidagi obro‘-etiborini yuqori bo‘lganidan dalolat beradi.

Xullas, Turkiston o‘lkasidagi so‘l eserlar sovet hokimiyatining dastlabki davrida 1917-yil noyabrdan to 1919-yil bahorigacha bolsheviklar bilan hamkorlik qilishgan. Ularning hamkorligi juda qisqa vaqt davom etib, pirovardida bolsheviklar o‘zlarining “ittifoqchilari” bo‘lgan so‘l eserlarni siyosiy hokimiyat uchun kurashda yanchib tashlashdi. Turkistonda so‘l eserlar bilan bolsheviklar o‘rtasida 15 oylik “o‘zaro hamkorlik va ittifoq” yuzaga kelgan edi. Bu partiyalar o‘rtasida hech qanday tub farq bo‘lmagan. So‘l eserlarning asosiy tarkibi sotsialistik inqilob partiyasidan bo‘lib, ular ham xuddi shu kabi partiyalar singari o‘zlarining mustamlakachilik siyosati yuritishgan. Mazkur partiyalar Sovet Ittifoqi hokimiyati e’lon qilinganida hamda Turkistonda zo‘ravonlik bilan sovet hokimiyati o‘rnatilganida bolsheviklarni qo‘llab quvvatlagan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. – Тошкент: “Шарқ”, 2024. –Б.384.
2. Необходимый путь. “Левый-эсер”. № 5, 6 Октября 1918 г.
3. Эсеры // Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. Издание второе. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – С. 688 – 689.
4. Ўзбек совет энциклопедияси. 7-жилд. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1976. – Б. 14 6.
5. Левые эсеры // Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. – С. 325 – 32 6.
6. Земельная политика // “Левый-Эсер”. № 7, 13 Октября 1918 г.;
7. Гусев К. Крах партии левых эсеров. М., 1963. –стр. 9 6.
8. II Всероссийский съезд Советов. – стр.55.; Гусев К. Крах партии левых эсеров. М., 1963. –стр. 97.
9. Гусев К.В., Полушкина В.А. Стратегия и тактика большевиков в отношении непролетарских партий. – Москва: Политиздат, 1983. – С.60.

10. Пакунова Т.А. Партия левых социалистов-революционеров (интернационалистов): идеология, организация, тактика (ноябрь 1917 – 1923 гг.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Москва, 1998. – 26 стр.
11. Маликов М.Г. Крах партии левых эсеров Туркестана. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1967. – С. 4.
12. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-133-fond, 1-ro‘yxat, 254-ish, 1-80-varaqlar.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-1-fond, 31-ro‘yxat, 400-ish, 48-varaq.
14. O‘zbekiston Milliy arxivi, I-461-fond (Туркестанское районное охранное отделение), 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-5-varaqlar.
15. Пакунова Т.А. Партия левых социалистов – революционеров (интернационалистов): идеология, организация, тактика (ноябрь 1917 – 1923 гг.). Автореферат дисс... канд. ист. наук. – Москва: 1998. – С. 18.
16. Маликов М.Г. Крах партии левых эсеров Туркестана. Автореферат дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 1967. – С. 26.
17. Саушкин Н.М. Критика В.И. Лениным программы и тактики партии эсеров. – Москва: Политической литературы, 1971. – С. 48.
18. Маликов М.Г. Крах партии левых эсеров Туркестана. Автореферат дисс... канд. ист. наук. Ташкент, 1967. – С. 26.
19. Циммервальдская и Кинтальская конференции. Официальный документ. – Ленинград, 1924. – С. 47.
20. Ўрта Осиё коммунистик ташкилотларининг тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. – Б. 178 – 179.
21. Ражабов К., Ҳайдаров М. Туркистан тарихи (1917 – 1924 й.). – Тошкент: “Университет”, 2002. – Б.39 – 40.
22. Туркестан в начале XX века: к истории истиков национальной независимости. –Ташкент: “Шарқ”, 2000. – С. 44.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОЛИТИЧЕСКОЙ БОРЬБЫ ЛЕВЫХ ЭСЕРОВ (СОЦИАЛИСТОВ РЕВОЛЮЦИОНЕРОВ) И БОЛЬШЕВИКОВ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация. В статье изучаются теоретические основы политической борьбы левых эсеров и большевиков в Туркестане. Анализируется сотрудничество левых социалистов Туркестанского края с большевиками в начальный период Советской власти — с ноября 1917 года по весне 1919 года. Изучаются также аспекты, связанные с тем, что большевики разгромили своих «союзников» — левых социалистов — в борьбе за политическую власть.

Ключевые слова: левые социолисты, большевики, меньшевики, капитализм, коммунизм, буржуазия, национальная политика, тоталитарный, советский, автономия, партия.

THEORETICAL BASIS OF THE POLITICAL STRUGGLE OF LEFT ESERS (SOCIAL REVOLUTIONARIES) AND BOLSHEVIKS IN TURKISTAN.

Annotation. This article examines the theoretical foundations of the political struggle between the Left Socialist Revolutionaries (Left SRs) and the Bolsheviks in Turkistan. It analyzes the cooperation between the Left SRs and the Bolsheviks in the Turkistan region during the early period of Soviet union—from November 1917 to the spring of 1919. Additionally, the article explores how the Bolsheviks, despite initially considering the Left SRs their "allies," ultimately crushed them in the struggle for political regime.

Keywords: Left Socialist Revolutionaries, Bolsheviks, Mensheviks, capitalism, communism, bourgeoisie, national policy, totalitarian, Soviet, autonomy, self-governance, party.